

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

Bir qatlamlı va ko‘p qatlamlı neyron to‘rlari

Tojimamatov Israil Nurmatovich

Farg‘ona Davlat Universiteti amaliy matematika va informatika fakulteti katta  
o‘qituvchisi, isik80@mail.ru

Abduhalilova Sohiba Abdurasul qizi

Farg‘ona Davlat Universiteti 2-kurs talabasi, sohibaabduhalilova159@gmail.com

**Annotatsiya:** Sun’iy neyron to‘rlari (SNT) – sun’iy neyronlar birlashuvi bilan yuzaga kelgan, biologik nerv to‘rini juda ham soddalashtirilgan ko‘rinishidir. Biologik nerv tizimlarida har bir neyron xossalalar va funksiyalar to‘plamiga ega bo‘lib, ular ichida miyaning kommunikatsion tizimini tashkil qiluvchi nerv tolalari bo‘yicha elektroximik signallarni qabul qilish, ishlov berish va uzatish funksiyalari noyob hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** bir qatlamlı neyron to‘rlari, ko‘p qatlamlı neyron to‘rlari

**Kirish:** Faollashtirish funksiyasi – sun’iy neyronning chiqish signalini (OUT) hisoblovchi nochiziqli funksiya bo‘lib, bu o‘rinda asosan quyidagi funksiyalar ishlataladi:

Neyroinformatika – biologik neyron to‘rlar ishlash tamoyili asosida hisoblash tizimlarini tadqiq qiladigan fan yo‘nalishi bo‘lib, oldingi avlod hisoblash qurilmalaridan bunday tizimlarning asosiy farqi: – hisoblashda yuqori parallelilik; – mavjud berilganlarni umumlashtirish qobiliyati; – dasturlash o‘rnini o‘rganish bilan almashtirish; – shovqinga nisbatan yuqori turg‘unlik. Neyron to‘rining arxitekturasi – neyron to‘rlari alohida element-larining bog‘lanish va tashkil qilish usuli.

Neyronlarning arxitekturaviy farqlanishidan biri – bu har xil faollashtirish funksiyadan foydalanishiga bog‘liqligidir. Neyron to‘rlari arxitekturasiga ko‘ra 2 sinfga ajratish mumkin: to‘g‘ri tarqalgan to‘rlar va rekurrent to‘rlar.

Neyroto‘rlarni o‘rganish algoritmi – to‘rni talab etilgandek ishlatish maqsadida arxitektura, sinaptik bog‘lanishlar vazni va o‘rgatuvchi tanlanma bo‘yicha neyron ostonalarini sozlash protsedurasidir. O‘rganishning asosiy paradigmali: O‘qituvchili o‘rganish – o‘rgatuvchi tanlanmada kirish-chiqish juftliklari, ya’ni, har bir kirish uchun to‘g‘ri javoblar (to‘rlarning chiqishi) ma’lum bo‘ladi. Yordam bilan o‘rganish – to‘g‘ri javoblar ma’lum emas, lekin to‘r chiqishi to‘g‘riligining kritik bahosi ma’lum. O‘qituvchisiz o‘rganish – o‘rgatuvchi tanlanma sifatida faqat kirish qiymatlaridan foydalaniladi. Aralash o‘rganish – bir qism vaznlar o‘qituvchili o‘rganish orqali, qolgan o‘z-o‘zini o‘rganish bilan topiladi.

Neyroto‘rni o‘rgatuvchi genetik algoritmi – bu neyroto‘rni optimal arxitekturasini evolutsion yo‘l bilan topuvchi algoritmdir.

Xatolar funksiyasi (xatolik funksionali, xatolik funksiyasi) – neyron to‘rini o‘rganish boshqarish jarayonida minimizatsiyani talab qiluvchi maqsad funksiya. Xatolik funksiya neyron to‘rini o‘rganish paytida ish sifatini baholash imkoniyatini beradi. Me’yordan ortiq o‘rganish (haddan tashqari yaqin moslash) – neyron to‘rinining konkret o‘rganish namunalarga haddan tashqari aniqlikdagi moslashuvi muammosi bo‘lib, uning natijasida to‘r umumlashtirish qobiliyatini yo‘qtadi.

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

**Ko'p qatlamlı sun'iy neyron to'rlari.** Ko'p qatlamlı sun'iyneyron tarmog'i chuqur o'rGANISHNING ajralmas qismidir. Ko'p qatlamlı neyron to'rlari kirish qatlami bir nechta yashirin qatlamlar va chiqish qatlamidan iborat bo'ladi. Ko'p qatlamlı neyron to'rlari bir qatlamlilardan ko'ra samaraliroq ishlaydi. Ko'p qatlamlı neyron tarmoq sun'iy neyronl ar yoki tugunlarning bir nechta qatlamini o'z ichiga oladi. Ular dizayn jihatidan juda katta farq qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bir qatlamlı neyron tarmoqlar sun'iy intellekt evolyutsiyasining boshida foydali bo'lgan bo'lsa-da, bugungi kunda ishlataladigan tarmoqlarning aksariyati ko'p qatlamlı modelga ega.

**Xulosa:**Sun'iy neyron – biologik neyronning ba'zi funksiyalarini bajaruvchi SNT elementi bo'lib, uning asosiy vazifasi kirish signallariga bog'liq holda chiqish signalini shakllantirishdan iborat. Eng keng tarqalgan konfiguratsiyalarda kirish signallari moslashuvchi summatorlar orqali silliqlanadi, keyin summatorning chiqish signali nochiziqli o'zgartirgichga (faollashtirish funksiyasiga) kiradi va u yerda ham o'zgartirilib chiqishga uzatiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojimamatov, I. N., Olimov, A. F., Khaydarova, O. T., & Tojiboyev, M. M. (2023). Creating A Data Science Roadmap And Analysis. Pedagogical Sciences And Teaching Methods, 2(23), 242-250.
2. Тожимаматов, И. Н. (2023). Задачи Интеллектуального Анализа Данных. Pedagog, 6(4), 514-516.
3. Muqaddam, A., Shahzoda, A., Gulasal, T., & Isroil, T. (2023). Neyron Tarmoqlardan Foydalanib Tasvirlarni Aniqlash Usullari. Sustainability Of Education, Socio-Economic Science Theory, 1(8), 63-74.
4. Raximov, Q. O., Tojimamatov, I. N., & Xo, H. R. O. G. L. (2023). Suniy Neyron Tarmoqlarni Umumiylashtirish. Scientific Progress, 4(5), 99-107.
5. Ortiqovich, Q. R., & Nurmatovich, T. I. (2023). Neyron Tarmoqni O 'Qitish Usullari Va Algoritmlari. Scientific Impulse, 1(10), 37-46.
6. Tojimamatov, I. N., Mamalatipov, O., Rahmatjonov, M., & Farhodjonov, S. (2023). Neyron Tarmoqlar. Nauchnye i Tekhnicheskie Issledovaniya, 1(1), 4-12.
7. Tojimamatov, I. N., Mamalatipov, O. M., & Karimova, N. A. (2022). Sun'iy Neyron Tarmoqlarini O 'Qitish Usullari. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences, 2(12), 191-203.
8. Muqaddam, A., Shahzoda, A., Gulasal, T., & Isroil, T. (2023). Neyron Tarmoqlardan Foydalanib Tasvirlarni Aniqlash Usullari. Sustainability Of Education, Socio-Economic Science Theory, 1(8), 63-74.
9. Raximov, Q. O., Tojimamatov, I. N., & Xo, H. R. O. G. L. (2023). Suniy Neyron Tarmoqlarni Umumiylashtirish. Scientific Progress, 4(5), 99-107.
10. Raxmatjonova, M. N., & Tojimamatov, I. N. (2023). Biznesda Suniy Intelekt Texnologiyalari Va Ularni Ahamiyati. Luchshie Intelлектualnye Issledovaniya, 11(3), 46-52.